

ISMOIL AL-BUXORIY HADISLARINING INSON KAMOLOTIDAGI O'RNI

Jo'rayeva Aldona Alimardon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Tosh DO'TAU
O'zbek tili va adabiyoti ta'limi
yo'nalishi 2-kurs talabasi
http://j.alдона2005@icould.com
+998505013789

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning hadislar to'plami hamda "Al-adab al-mufrad" asarida ilgari surilgan axloqiy tamoyillarning inson kamolotidagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy bo'shliq muammolari va ularning yechimi sifatida hadislardagi niyat xolisligi, ilmga intilish hamda ijtimoiy odob normalari ilmiy asoslangan. Maqolada inson komilligiga erishishning pedagogik va psixologik jihatlari Al-Buxoriy merosi misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Imom al-Buxoriy, hadis, inson kamoloti, komil inson, "Sahihul Buxoriy", "Al-adab al-mufrad", ma'naviy-axloqiy tarbiya, ilm va amal, niyat xolisligi, ijtimoiy mas'uliyat.

Inson kamoloti barcha davrlarda falsafiy va pedagogik fikrning markazida bo'lib kelgan. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot asrida yoshlar tarbiyasida ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish eng dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada buyuk muhaddis bobomiz Imom al-Buxoriy qoldirgan boy ilmiy meros, xususan, uning hadislar to'plami inson ma'naviyatini yuksaltirishda tengsiz manba bo'lib xizmat qiladi. Ismoil al-Buxoriy ilmiy merosining asosini tashkil etuvchi "Sahihul Buxoriy" asari musulmon olamida Qur'ondan keyingi eng ishonchli manba sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy sharoitda shaxs kamolotiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri – bu "manfaatdorlik xulqi"dir. Ya'ni, insonlar o'z harakatlarini faqat moddiy natija uchun amalga oshirishi ma'naviy tanazzulga olib kelmoqda. "Amallar niyatlarga bog'liq", ush hadis inson kamolotining ichki asosini belgilaydi. Ya'ni, komillik tashqi natijalardan emas, balki qalb pokligi va niyat xolisligidan boshlanadi. Niyatning to'g'riligi insonning barcha amallariga ma'naviy qiymat bag'ishlaydi. "Haqiqatda, har bir amal niyatga bog'liqdir va har bir kishi niyat qilgan narsasiga erishadi..."¹ Komil inson darajasiga yetishish uchun har bir amalda "niyat xolisligi" bo'lishi shart. Inson o'z mehnatini jamiyatga xizmat qilish va ruhiy poklanish

¹ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy: Al-jome' as-sahih. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. – 41-bet.

deb bilsagina, uning shaxsi yuksaladi. Al-Buxoriy hadislarini orqali yoshlarda samimiylik va halollikni tarbiyalash ushbu ma'naviy bo'shliqni to'ldirishning yagona yo'lidir.

Bugungi kunda axborot ko'p, lekin uning natijasi bo'lgan amaliy natija kam. "Alloh kimga kimga yaxshilikni istasa, uni dinda faqih qoladi" bu hadis ilmning oddiy bilim emas, balki chuqur anglangan va hayotga tatbiq etilgan shakli muhim ekanini ko'rsatadi. Haqiqiy ilm insonni nafaqat bilimli, balki odobli va mas'uliyatli shaxsga aylantiradi. Yoshlar orasida nazariy bilimlarni to'plash, lekin ularni kundalik hayotda, odob-axloqda qo'llamaslik holatlari ko'p uchraydi. Ilm so'zlash va amal qilishdan oldindir.² Imom al-Buxoriy ta'limotiga ko'ra, bilim o'z-o'zidan maqsad emas, balki insonning amalini, xulqini o'zgartirish vositasidir. Kamolotga intilayotgan shaxs egallagan har bir ma'lumotini odobga aylantirishi lozim. Bu pedagogik muammoni yechishda hadislarini darsliklarga amaliy misollar bilan kiritish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hadislarini faqat nazariy o'rganish emas, balki ularni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab o'rgatish samarali hisoblanadi. Bu usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axloqiy qaror qabul qilish va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantiradi. Ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan davrda kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat va so'z mas'uliyati pasayib borayotgani ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarmoqda "Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsa, yaxshi gapirsin yoki sukut qilsin". Inson kamoloti masalasida faqatgina hadis matnini bilish yetarli emas, balki ularning zamiridagi tarbiyaviy g'oyalarni olimlar qanday talqin qilganiga e'tibor qaratish lozim. Xususan, taniqli sharqshunos olim va manbashunos Ubaydulla Uvatov Imom al-Buxoriy shaxsiyati va uning asarlari haqida shunday yozadi:

"Imom al-Buxoriy o'z hadislarida insonning nafaqat diniy, balki dunyoviy komilligini ham birinchi o'ringa qo'ygan. Uning "Al-adab al-mufrad" asari, mohiyatan, insonni jamiyatda o'zini qanday tutishi, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' va hatto hayvonlarga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi axloq kodeksidir".³ Darhaqiqat, olimning ushbu fikrlari bugungi kunning ijtimoiy loqaydlik muammosiga yechim bo'la oladi. Al-Adab al-Mufrad asarida keltirilgan hadislar insonning kundalik hayotdagi xulq-atvorini tartibga solishga qaratilgan bo'lib, unda ota-onaga hurmat, qo'ni-qo'shnichilik, saxovat va mehr-oqibat kabi qadriyatlar keng yoritilgan. Agar shaxs o'z kamolotini o'zgalarga yaxshilik qilishda deb bilsa, jamiyatda ma'naviy muhit sog'lomlashadi.

Bundan tashqari, hadislar sharhi bilan chuqur shug'ullangan olim Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ilm va inson ma'naviyati haqida quyidagi muhim xulosani keltiradi:

² Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy: Al-jome' as-sahih. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. – 72-bet.

³ Uvatov U. Imom al-Buxoriy. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2010. – 54-bet.

“Islom ta’limotida ilm insonni kibrga yetaklamasligi, aksincha, uni tavoze’li (kamtarin) qilishi lozim. Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan hadislar kishi qalbini hasad, g‘iybat va kibr kabi ma’naviy illatlardan tozalashga xizmat qiladi. Bu esa inson kamolotining eng oliy bosqichidir”.⁴ Bu fikrlar shuni ko‘rsatadiki, inson kamoloti faqat tashqi bilim bilan emas, balki ichki poklanish orqali amalga oshadi. Hadislar inson qalbini tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biridir.

Shunday qilib, Ismoil al-Buxoriy merosi asosida inson kamoloti uch muhim tamoyilga tayanadi:

- niyat pokligi
- ilm va amal uyg‘unligi
- go‘zal axloq

Aynan ushbu tamoyillar uyg‘unlashgandagina jamiyatda ma’naviy barkamol shaxslar shakllanadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Imom al-Buxoriyning hadislar to‘plami shunchaki tarixiy-diniy manba emas, balki inson kamolotining universal pedagogik dasturidir. Zamonaviy jamiyatda kuzatilayotgan axloqiy inqirozlarni bartaraf etishda Al-Buxoriy ilgari surgan “niyat xolisligi” tamoyili insonning ichki dunyosini isloh qilishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, ilm va axloq uyg‘unligi masalasi shuni tasdiqlaydiki, bilim insonni kibrga emas, balki tavoze’ va ezgu amalga yetaklagandagina uni haqiqiy komillik darajasiga ko‘taradi. Olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda odobga aylantirish — Al-Buxoriy ta’limotining tub mohiyatini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy: Al-jome’ as-sahih. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
2. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2014.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 1-jild: Niyat, ixlos va ilm. – Toshkent: “Hilol-nashr”, 2021.
4. Uvatov U. Imom al-Buxoriy. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2010.

⁴ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 1-jild. Niyat, ixlos va ilm. – Toshkent: “Hilol-nashr”, 2021. – 112-bet.